



**BUXORO DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI**

**ILMIY – METODIK JURNAL**

No. 2

## “KORPUS TEXNOLOGIYALARI VA SUN’IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI ASOSIDA INGLIZ TILIDA OG‘ZAKI NUTQ HAMDA O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH”

*Baxtiyorova Durdona Ixtiyor qizi,*

Buxoro innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti v.b dotsenti,p.f.f.d(PhD)

[ixtiyorovnadurdona@gmail.com](mailto:ixtiyorovnadurdona@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini an’anaviy metodlardan zamonaviy metodlarga o’tishning afzalliklari va qulayliklari borasida o’tkazilgan tadqiqotimiz natijalari haqida so‘z boradi. Mavjud zamonaviy metodlarga sun’iy intellekt qurilmalarini olib kirib zamonaviy va sinovdan o’tgan an’anaviy metodlarning yanada samarali bo‘lish usullari yuzasidan tadqiqot o’tkazilini ularning natijalari onlain hamda offline anketa so‘rovnomalari orqali aniqlandi. Shuningdek, maqolada sun’iy intellektdan dars jarayonida foydalanish paytida yuzaga keladigan bir qancha muammolarga yechimlar ham ko‘rsatilgan. Korpusga asoslangan ingliz tilini o‘qitish metodikasiga sun’iy intellekt qurilmalarining joriy qilinishi til o‘rganish samaradorligini 30% - 40% gacha oshirishi tajriba sinovlar orqali ko‘rsatib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Korpus lingvistikasi, sun’iy intellekt, zamonaviy til o‘qitish metodikasi, leksik yondashuv, korpusga asoslangan ta’lim, raqamli pedagogika, matnli qidiruv, ChatGPT va Quillbot qurilmalari.

## “IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING ENGLISH SPEAKING AND READING COMPREHENSION SKILLS BASED ON THE INTEGRATION OF CORPUS TECHNOLOGIES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE”

*Bakhtiyorova Durdona Ikhtiyor qizi,*

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences

Bukhara Innovative Education and Medical University

Email: [ixtiyorovnadurdona@gmail.com](mailto:ixtiyorovnadurdona@gmail.com)

**Abstract:** This article discusses the results of our research on the advantages and effectiveness of transitioning from traditional methods to modern approaches in English language teaching. The study investigates ways of integrating artificial intelligence technologies into existing modern teaching methods in order to enhance the effectiveness of both innovative and traditionally tested pedagogical approaches. The findings were identified through online and offline questionnaire surveys. Furthermore, the article highlights several challenges that arise during the use of artificial intelligence in the teaching process and proposes practical solutions to these issues. Experimental research demonstrated that the integration of artificial intelligence tools into corpus-based English language teaching methodology can increase language learning effectiveness by approximately 30–40%.

**Keywords:** Corpus linguistics, artificial intelligence, modern language teaching methodology, lexical approach, corpus-based education, digital pedagogy, text-based search, ChatGPT and Quillbot tools.

## “СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ И ЧТЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ КОРПУСНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА”

*Бахтиёрова Дурдона Ихтиёр кизи,*

и.о. доцента, PhD по педагогическим наукам

Bukhara Innovative Education and Medical University


E-mail: [ixtiyorovnadurdona@gmail.com](mailto:ixtiyorovnadurdona@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются результаты проведённого исследования, посвящённого преимуществам и эффективности перехода от традиционных методов к современным подходам в обучении английскому языку. В исследовании изучены способы интеграции технологий искусственного интеллекта в существующие современные методики обучения с целью повышения эффективности как инновационных, так и проверенных традиционных подходов. Результаты исследования были определены посредством онлайн- и офлайн-анкетирования. Кроме того, в статье представлены решения ряда проблем, возникающих при использовании искусственного интеллекта в образовательном процессе. Экспериментальные исследования показали, что внедрение инструментов искусственного интеллекта в корпусно-

ориентированную методику обучения английскому языку способствует повышению эффективности изучения языка на 30–40 %.

**Ключевые слова:** корпусная лингвистика, искусственный интеллект, современная методика обучения языкам, лексический подход, корпусно-ориентированное обучение, цифровая педагогика, текстовый поиск, инструменты ChatGPT и QuillBot.

**Kirish:** Korpus bu ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklarining yig'indisidir. Misol uchun tibbiyotga yoki iqtisodiyotga oid matnlar yig'ilib ularda eng ko'p qo'llaniladigan so'zlarni tanlangan matnlarda qo'llanilishini o'rganadi. Korpus lingvistikasi esa ma'lum tilning belgilangan davrdagi, xilma-xil janr, rang-baranguslub, hududiy hamda ijtimoiy variantdagi matnlarning elektron shakldagi maxsus dasturiy ta'minot asosidagi yig'indisidir. Tadqiqotimizni boshlashdan oldin oldimizga bir qancha savollarni qo'ydik va shu savollarga javob toppish uchun ilmiy ishni boshladik. Savollarimizga javob toppish bilan birgalikda, til o'rganishda mavjud bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ham ko'plab imkoniyatlarni yaratdik. Tadqiqotimizni boshlashdan oldin oldimizga quyidagi savollarni qo'ydik: 1-rasmga qarang:



1-rasm.

Yuqoridagi savollar tadqiqotimizning maqsad va vazifalarini yaqqol ochib berishga xizmat qildi. Nima uchun zamonaviy tilshunoslikda korpusga zarurat bor? Ushbu savolga quyidagicha javoblar topdik va har bir javobni zaruriyati jihatidan izohlashga harakat qildik:

1. Korpus yordamida tilni o'rganishda ularning tabiiy kontekstida tezda kerakli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish mumkin;
2. Korpus tilni tadqiq qiluvchilar hamda o'rganuvchilar uchun natijalarni qisqa vaqtda turli shakllarda namoyish qilish imkonini beradi;
3. Korpus asosida amaliy tilshunoslikning turli sohalari uchun mashinani o'rganish amalga oshiriladi;
4. Korpus til bilan bog'liq har qanday boshqa vazifalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Bir marta yaratilgan va tayyorlangan korpus qayta-qayta, turli tadqiqotchilar tomonidan va turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Keyingi o‘z- o‘zimizga bergan savolimiz: ingliz tilida real muloqotni amalga oshirishda korpus orqali til o‘rgatishning ahamiyati qanday? Korpusga asoslangan xorijiy tilni xususan ingliz tilini o‘rganishning juda ko‘p qulay imkoniyatlari mavjud. Chet tilini o‘qitishda korpusga asoslangan lug‘at o‘rgatish deganda, o‘quvchilarning korpuslar deb ataladigan katta matnlar to‘plamida mavjud bo‘lgan real til qo‘llanilishini tahlil qilish orqali so‘z boyligini o‘rganish yondashuvi tushuniladi. Korpus-kompyuterda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki matnlar to‘plami“ (O’Keeffe, McCarthy & Carter, 2007, p. 1). U yozma hujjatlar (kitoblar, maqolalar, veb-saytlar va h.k.) yoki og‘zaki nutqni (intervyular, suhbatlar va h.k.) o‘z ichiga olishi mumkin. Bundan ko‘zlangan maqsad shuki o‘quvchilarni alohida ajratilgan lug‘at ro‘yxatlari yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimaga tayanib qolmasdan, so‘z va iboralarning real kontekstda qanday qo‘llanilishi bilan tanishtirishdir.

**Tadqiqot obyekti:** bugungi zamonaviy raqamli ta’lim sharoitida korpus lingvistikasi metodlari va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini uyg‘unlashtirish orqali talabalarning ingliz tilida og‘zaki muloqot qilish va matnni o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yondashuv yordamida talabalar til birliklarining tabiiy kontekstdagi qo‘llanilishini kollokatsiyalar tahlili asosida o‘rganadilar. Sun’iy intellekt vositalari interaktiv o‘quv muhitini yaratish, individual ehtiyojlarga moslashtirilgan ta’lim yo‘nalishini shakllantirish hamda talabalarning mustaqil va samarali til o‘rganish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Albatta, til o‘rganuvchilar ma’lum bir ingliz tilidagi so‘zning tarjimasini bilmasa uni lug‘atdan qidirganda bitta so‘zning o‘ndan ortiq tarjimalari borligini ko‘radi va u izlagan so‘z qaysi biri ekanligini aniqlashga qiynaladi va o‘z o‘zidan ingliz tilini o‘rganish qiyin degan xulosaga keladi. Bundan tashqari, o‘ziga kerakli so‘zning tarjimasini aniqlagunicha ancha vaqt sarflaydi va bu esa til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni so‘ndiradi. Aynan mana shunday vaziyatlarda korpus lingvistikasi va sun’iy intellektning integratsiyasi har qaysi ikki muammoga yechim bo‘la oladi. Avvalo o‘qituvchi har bir dars uchun alohida dars ishlanmasini tayyorlab chiqishi kerak bo‘ladi. Misol uchun bugungi mavzu “Medical instruments”(tibbiy asboblari) bo‘lsa o‘qituvchi oldindan qisqa matn tayyorlaydi. Matn kitoblardan emas balki sun’iy intellekt orqali yangi matn yaratiladi. Sun’iy intellektning mashhur qurilmalaridan biri bo‘lgan ChatGPT qurilmasiga quyidagi promptni yuboradi: - menga tibbiyotda keng qo‘llaniladigan asboblarning nomlaridan 20 tasini ingliz tilida yubor, shu 20 ta so‘zning har birini qatnashtirgan holda bitta yaxlit matn yubor, matn darajasi B1 bo‘lsin. Qarabsizki bir juftlik ingliz tili darsi materiali tayyor eng muhimi eski darsliklarda mavjud bo‘lgan ishlatilmaydigan kontekstli matnlar emas, balki talabalarning ingliz tilini bilish darajasiga mos matnlar yaratiladi. Bundan tashqari matn qahramonlarining ismlarini va suratlarini ushbu sun’iy intellekt qurilmasi asosida o‘zingiz yaratishingiz mumkin ya’ni talabalarigizning ismi va suratini matnga mos holatda joylashtirasiz. Darsning har bir detali va muhiti tabiiy va qiziqarli bo‘ladi. So‘zlarning ko‘p tarjimasi va ma’nosi borligiga qaramasdan talabalar korpus lingvistikasi asosida so‘zlarni oson o‘rganishadi. 2-rasmga qarang:

## Dressing

### 1.Sous/qayla

He poured French dressing  
 over salad  
 u fransuz qaylasini salat  
 ustidan quydi

### 2.Kiyinish jarayoni

Many of our patients need  
 help with dressing

### 3.Tibbiyot bog'lami

The nurse changed the  
 dressing on the wound

2-rasm.

Talabalar mavzuga aloqador har bir soʻzning mana shunday keng uchraydigan tarjimalari bilan tanishishadi shundan soʻng esa korpusga asoslangan lingvistik qurilma asosida bu soʻzning qanday soʻz birikmalari bilan kelishi oʻrganishadi. 3-rasmga qarang:



3-rasm

Talabalar mana shunday bir soʻzning oʻzini emas balki uning soha korpusida qaysi soʻzlar bilan ishlatilishini ham oʻrganishadi.

**Qoʻllanilgan metodlar:** tadqiqotimiz davomida koʻplab metodlardan foydalandik. Ushbu maqolada asosan kuzatuv va anketa soʻrovnomasi metodlaridan olgan natijalarimiz borasida soʻz yuritib, olingan natijalar foizlari bilan koʻrsatilgan. Kuzatuv metodi orqali oʻtkazilgan tajriba sinovimizda anʼanaviy dars jarayonlari va biz takomillashtirgan metod orqali oʻtkazilgan tibbiyotda xorijiy til darslari solishtirilib shuni aniqladikki agarda sunʼiy intellekt va kollokatsiyalarga asoslangan lugʻatlar orqali mutaxassislikka oid soʻzlarni yondosh soʻzlar yaʼni soʻz birikmalari orqali oʻrgatilsa oʻrganish tezligi 15% ga balki undan ham yuqori natijalarga erishish mumkin. Bunda savol tugʻilishi mumkin: bunday jarayonda faqat mutaxassisligigiga oid soʻzlarga oʻrganiladimi? Albatta, bunday emas bu faqat til oʻrganuvchilarga oson kerakli va qiziqarli muhit yaratish orqali ularning xorijiy tilga boʻlgan muhabbatlarini va qiziqishlarini yanada orttirish orqali taʼlim samaradorligini oshishni niyyat qilganmiz. Bu metodlar orqali til oʻrganuvchisi tilga moyilligi oʻz oʻzidan ortib borishi va bu qiziqish orqali qisqa fursatda xorijiy tilni oʻrganishlarini oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻydik. Eng qiziqarli Tomoni shundaki bu metod nafaqat ingliz tilini oʻrgatishga qaratilgan balki siz istalgan xorijiy tillarni ushbu metod orqali samarali oʻrgatishingiz mumkin. Tadqiqot jarayonida korpus tahlili, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda sunʼiy intellekt asosidagi lingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Talabalarning ingliz tilidagi nutq namunalari oʻrganishda boshqaruv suniy intellekt vositalari va korpus texnologiyalari qoʻllanildi. Olingan maʼlumotlar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilindi. Kuzatuv metodi orqali talabalarning anʼanaviy usuldagi dars jarayonidagi faolligi, yangi soʻzlarni eslab qolish darajasi hamda ularni nutqda qoʻllash koʻnikmalari kuzatildi. Shuningdek, tajriba-sinov guruhlarida sunʼiy intellekt vositalari hamda kollokatsion birliklarga asoslangan oʻqitish metodlari joriy etilib, ularning natijalari anʼanaviy dars jarayonlari bilan taqqoslandi. Kuzatuvlar davomida talabalar yondosh soʻzlar va soʻz birikmalari asosida oʻrganilgan terminlarni tezroq eslab qolishlari, ularni muloqot davomida erkinroq qoʻllashlari va talaffuzdagi xatolar sonining kamaygani aniqlandi. Anketa-soʻrovnomasi metodidan foydalanish orqali talabalarning yangi metodga boʻlgan munosabati, qiziqishi hamda motivatsiya darajasi oʻrganildi. Soʻrovnomasi natijalari shuni koʻrsatdiki, aksariyat talabalar sunʼiy intellekt yordamida tashkil etilgan

interaktiv darslar va kollokatsion mashqlar orqali xorijiy tilni o'rganish an'anaviy metodlarga nisbatan qiziqarliroq va samaraliroq ekanligini ta'kidladilar. Ayniqsa, tibbiyot terminlarini kontekst asosida o'rganish talabalar uchun qulaylik yaratgan hamda kasbiy nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilgani kuzatildi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili:** tadqiqotning yana bir muhim jihati korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuvdan foydalanilganidir. Bunda ingliz tilidagi tibbiy matnlar korpusi shakllantirilib, eng ko'p uchraydigan terminlar va ularning kollokatsion birliklari saralab olindi. Ushbu birliklar sun'iy intellekt vositalari yordamida tahlil qilinib, talabalarga eng zarur va faol qo'llaniladigan birikmalarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada talabalar nafaqat alohida so'zlarni, balki ularning tabiiy nutqdagi qo'llanish holatlarini ham o'zlashtirish imkoniga ega bo'ldilar. Shuningdek, tadqiqot davomida generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalanilib, talabalar uchun individual mashqlar, dialoglar, kasbiy matnlar va test topshiriqlari yaratildi. Bu esa talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda dars jarayonida interaktiv muhitni shakllantirishga yordam berdi. Sun'iy intellekt vositalari orqali talabalar talaffuz, grammatik xatolar va leksik qo'llanilish bo'yicha tezkor tavsiyalar olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kollokatsiyalarga orqali o'qitish va sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi xorijiy tilni o'qitishda samarali innovatsion yondashuv hisoblanadi. Mazkur metod nafaqat ingliz tilini, balki boshqa xorijiy tillarni o'qitishda ham qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarda tilga nisbatan qiziqish, motivatsiya va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv o'quv jarayonini zamonaviylashtirish, individual ta'limni rivojlantirish hamda qisqa muddat ichida yuqori natijalarga erishishga zamin yaratadi.

**Ilmiy yangiligi:** tadqiqotimizning ilmiy yangiligi shundan iborat: biz an'anaviy xorijiy til fanlarida mavjud bo'lgan metodlarga zamonaviy usullar orqali ishlov berdik. Ya'ni kollokatsiyalarga asoslangan til o'qitish metodiga sun'iy intellekt vositalaridan ChatGPT va boshqa shunga o'xshash qurilmalarni integratsiya qildik. Eng muhim Tomoni shundaki bu jarayonda bir qancha mavjud muammolarga yechimlar topdik. Ya'ni xorijiy til darsida talabaning telefonida mb yoki aloqa raqamida pul mablag'lari bo'lishi shart emas. Biz foydalanayotgan qurilma bir marotaba yuklab olinadi va uni internet tarmog'iga ulanmagan holatda ham foydalanish imkonini beradi. Bu nafaqat moliyaviy jihatdan qulaylik yaratadi balki shaxsiy xavfsizlik uchun ham juda muhimdir.

**Xulosa :** xulosa qilib aytadigan bo'lsak sun'iy intellekt qurilmalaridan mohirona foydalanish, zamonaviy texnologiyalardan erkin foydalana olish zamon talabiga aylanib bo'ldi. Avvalgi tadqiqotlarimizda bu jarayonlarni aylanib bormoqda degan bo'lsak endi bemalol hech ikkilanmasdan zamon talabi deya olamiz. Oddiygina hamshira ishga kirmoqchi bo'lsa undan qaysi tillarni bilishi va zamonaviy gadjetli texnologiyalardan foydalana olishi yoki olmasligi so'raladi. Shunday ekan har bir pedagog ayniqsa xorijiy til va informatika o'qituvchilari avvalo o'zlari bunday talablarga mutlaqo javob bera olishlari zarur undan keyin esa talabalariga ham osongina o'rgata olishlari zarurdir. Albatta bu zamon talabi! Zero biz katta ish bozorlarida munosib joylarni egallab jahon ishchi bozorlari talablariga ham javob bera oladigan kadrlarni tayyorlashimiz zarurdir. Shunday ekan biz yaratgan metod talabalarning til o'rganish jarayonini soda, tez, samarali va eng muhimi xavfsiz va moliyaviy jihatdan qulay holatda o'rganishlariga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Firth, J. R. (1957) *Papers in Linguistics*. London. Oxford University Press.
2. Fox, G. 1987. The case for examples. In *Looking up, An account of the COBUILD project in lexical computing*, edited by J. Sinclair. pp. 173-149. London: HarperCollins.
3. Hill, J., and M. Lewis, eds. 1997. *Dictionary of selected collocations*. Hove, UK: Language Teaching Publications.
4. Howart, P. (1996) 'Phraseology in English Academic Writing' In *Lexicographica Series. Major 75*. Tubingen: Niemeyer.
5. Jowitt, D. (1991) *Nigerian English Usage*. Lagos: Macmillan
6. Meara, P. (1997) 'Classroom as Lexical Environments'. In *Language Teaching Research I, I*, (pp. 28-47).
7. McCarthy, M. (1995) *Vocabulary*. Oxford: Oxford University Press.

8. Bender, E. M., Gebru, T., McMillan-Major, A., & Shmittchell, S. (2021).
9. On the dangers of stochastic parrots: Can language models be too big? Proceedings of the 2021 ACM Conference on Fairness, Accountability, and Transparency, 610–623. <https://doi.org/10.1145/3442188.3445922>
10. Berns, A., Gonzalez-Pardo, A., & Camacho, D. (2016). Game-like language learning in 3D virtual environments. *Computers & Education*, 92, 145–158. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2015.10.009>
11. Busuu. (2023). About us. <https://www.busuu.com/en/about>
12. Chevalier, J. (2016). Grammarly: A tool for improving writing skills. *Journal of Educational Technology*, 12(3), 45–50. <https://www.journaledtech.org/articles/grammarly>
13. Duolingo. (2023). About us. <https://www.duolingo.com/info>
14. Edyburn, D. L. (2013). Inclusive technologies: Tools for helping diverse learners achieve academic success. *Journal of Special Education Technology*, 28(2), 1–12. <https://doi.org/10.1177/016264341302800201>
15. Elsa Speak. (2023). How it works. <https://www.elsaspeak.com/en/how-itworks>
16. Franco, H., Bratt, H., & Rossier, R. (2019). Automatic pronunciation assessment for language learners. *Speech Communication*, 112, 22–30. <https://doi.org/10.1016/j.specom.2019.06.002>
17. Fryer, L. K., Ainley, M., & Thompson, A. (2017). Self-efficacy in learning: The role of chatbots. *Computers & Education*, 112, 56–66. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2017.05.006>

<b>Ikramova Aziza Aminovna</b> , Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'rganish tizimlari orqali talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash	136
<b>Jumaniyozova Shahnoza Rajabboy qizi</b> , Alohida ehtiyojmand bolalar bilan ishlashning psixologik xususiyatlari	142
<b>Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi</b> , Pragmatik yondashuv orqali talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	147
<b>Jumayeva Habiba G'aforovna</b> , Ta'lim jarayonida geymifikatsion texnologiyalar vositasida talabalarining o'z-o'zini baholash kompetensiyasini rivojlantirish	156
<b>Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevena</b> , Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar	162
<b>Nadirxanovna Nozima Alisherovna</b> , Yozma madaniyatlararo muloqotni o'rgatishda talabalarining sotsiologiyistik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	167
<b>Очиллов Фарход Эгамбердиевич</b> , Трансформация семейных традиций и их влияние на патриотическое воспитание молодого поколения в узбекистане	171
<b>Qurbonova Nafisa Saidjonovna</b> , Differensiyal ta'lim va uning pedagogik ahamiyati	178
<b>Qo'ldoshev Mehriddin Avezmurodovich</b> , Ahmad Donish ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida yoshlarda ma'naviy-axloqiy kamolotni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	182
<b>G.V. Izbullayeva, Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna</b> , Bo'lajak o'qituvchilarning media-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	187
<b>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</b> , Talabalarda iqtisodiy savodxonlik madaniyatini shakllantirishning innovatsion va intensiv ko'rinishlari	192
<b>Sadullayeva Zarnigor To'liqinjonovna</b> , Talabalarining o'z-o'zini tarbiyalash darajasini diagnostika qilish va monitoring tizimi	197
<b>Safarova Nigora Nasillovna</b> , Transformativ ta'limning metodologik asoslari: Tanqidiy pedagogika, refleksiv yondashuv va sotsiokonstruktivizm integratsiyasi	204
<b>Teshayeva Dilnoza Chori qizi</b> , Talabalarda ekologik mas'uliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik omillari	210
<b>D.I. Normatova</b> , Ingliz tili o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	217
<b>Jumayeva Habiba G'aforovna</b> , Ta'lim jarayonida geymifikatsion yondashuv orqali talabalarining evristik-kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	222
<b>Raximbayeva Gulyora Ulug'bekovna</b> , Talabalarda media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlik	228
<b>Hamdamova Nigora Olimovna</b> , Pedagogical approaches and methods in understanding semantic content	234
<b>Yaxyayeva Shoiraxon Toxirboyevna</b> , Milliy kontent vositasida bolada tahliliy fikrlashni shakllantirish metodikasi	240
<b>Filologiya fanlari</b>	
<b>Зиядуллаева Гульчехра Фатилло Кызы</b> , Семантические синонимы глагола "Пить чай" И их стилистические особенности	245
<b>Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna</b> , XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhiti va Abdurahmon Tamkin Buxoriyning adabiy merosi	250
<b>Axmedova Dildora Bahodirovna, Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi</b> , O'quvchilarning nutqiy etiket kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	255
<b>Ahatova Durdona Davron qizi</b> , Omon Muxtor hikoyalaridagi badiiy zamon va inson tasvirining o'ziga xosliklari	260
<b>Baxtiyorova Durdona Ixtiyor qizi</b> , "Korpus texnologiyalari va sun'iy intellekt integratsiyasi asosida ingliz tilida og'zaki nutq hamda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish"	264
<b>Nosirova Dilfuza Mustafoyevna</b> , Masallarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari	271
<b>Nosirova Nodirabegim Nodirovna</b> , Til o'rganish jarayonida sun'iy intellektning integratsiyasi: Lingvistik kompetensiyani shakllantirish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	275
<b>To'raboyeva Muqaddas, Pirimova Madina Ramazonovna</b> , Ona tili o'qitish metodikasining zamonaviy konsepsiyasi: Taqiqotlar va yondashuvlar (alijon hamroyevning ilmiy maktabi misolida)	279
<b>Ijtimoiy fanlar</b>	